

## 2019- YILDA NAVOIY VILOYATIDA TURIZM

So'nggi yillarda mamlakat milliy iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni izchil amalga oshirilmoqda, bu esa uning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, shuningdek, investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan.

### Turistik faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlar soni (2015 - 2019 yillar)



2019- yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 7 tani tashkil qilgan, 2018- yilga nisbatan 1 taga ko'p. Ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 2018- yilda 10,3 ming nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2019- yilda 16,3 ming nafarga yetgan.

### 2019- yilda xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni

	Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar, kishi	Bir kunlik tashrif buyuruvchilar (ekskursantlar)	Tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar (sayyohlar)	Kishi-kun (tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar uchun)
<b>Jami</b>	<b>16 340</b>	<b>14 911</b>	<b>1 429</b>	<b>2 858</b>
<b>Qabul qilindi</b>	<b>3 954</b>	<b>3 856</b>	<b>98</b>	<b>196</b>
shu jumladan:				
xorijiy tashrif buyuruvchilar	3 696	3 606	90	180
ulardan MDH mamlakatlaridan	71	71	-	-
O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	258	250	8	16
<b>Jo'natildi</b>	<b>12 386</b>	<b>11 055</b>	<b>1 331</b>	<b>2 662</b>
shu jumladan:				
xorijiy mamlakatlarga	20	-	20	40
ulardan MDH mamlakatlariga	20	-	20	40
O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha	12 366	11 055	1 311	2 622

### 2019- yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln. so'm
<b>Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari - jami</b>	460	50,9
Ulardan bevosita aholiga	460	50,9
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	460	50,9

2019- yilda turistik firmalar orqali 460 dona, qiymati 50,9 mln. so'mlik sayyohlik yo'llanmalar sotilgan. Yo'llanmalarining hammasi O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga (100,0 %) sotilgan.

## 2019- yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni, birlik



Jamoaviy joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari – 35 ta (ulardagi ob'ektlarni qo'shgan holda), ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari – 14 ta, individual joylashtirish vositalari – 17 ta va boshqa joylashtirish vositalari – 1 ta.

## Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, birlik




Mehmonxonona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmonxonalar va qisqa muddat yashash uchun mo'ljallangan boshqa joylar. 2019- yilda mehmonxonona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida xonalar soni 925 tani, ularda joylar soni 1 639 tani tashkil etgan. Joylashtirilgan shaxslar soni 53 085 kishini, shundan 80,0 % O'zbekiston fuqarolari, 8,6 % MDH mamlakatlari fuqarolari, qolgan 11,4 % xorijiy davlatlardan fuqarolardir. Jami tunab qolishlar soni 127 622 kunni tashkil etgan.

### Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari, birlik




Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: dam olish uylari va zonalari – 3 ta, kemping – 1 ta, katta yoshlilar uchun sanatoriya – 2 ta, bolalar uchun sanatoriya – 1 ta, sanatoriya-profilaktoriya – 4 ta, turistik baza – 3 ta. Xonalar soni 584 tani, ularda joylar soni 1 255 tani, joylashtirilgan shaxslar soni 22 276 kishini tashkil etdi. Jami tunab qolishlar soni 202 162 kunni tashkil etgan.

## Individual joylashtirish vositalari, birlik



Individual joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmon uylari – 15 ta, o'tov lagerlari – 2 ta. Ularda xonalar soni 96 tani, o'rinlar soni esa 276 tani tashkil etdi. Joylashtirilgan shaxslar soni 4 528 kishini tashkil etgan. Mehmonxona uylariga joylashtirilgan shaxslar – 38,5 %, o'tov lagerlariga – 61,5 % to'g'ri keladi. Jami tunab qolishlar soni 8 751 kunni tashkil etgan.

### Mehmonxonalar toifasi (yulduzi), %da



Mehmonxonalar toifa bo'yicha 1 – yulduzli, 2 – yulduzli, 3 – yulduzli, 4 – yulduzli, 5 – yulduzli va toifasizlarga bo'linadi. Navoiy viloyatida toifasiz mehmonxonalar – 80 %ni, 1 – yulduzli, 3 – yulduzli va 4 – yulduzli mehmonxonalar esa 20 %ni tashkil etgan.


## 2019- yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi



Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida 53 085 kishi joylashtirilgan. Ulardan ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bo'yicha joylashtirilganlar – 77,2 %, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik – 9,8 %, do'stlar va qarindoshlardan xabar olish – 5,9 %, ta'til va dam olish maqsadida – 3,9 %, boshqa shaxsiy maqsadlar – 2,3 %, ziyosat qilish – 0,8 %, qolgan – 0,1 %ni davolovchi va sog'lomlashtiruvchi, do'konlarga tashriflar va tranzit tashkil etgan.



**2019- yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi**




Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, 1 - 3 kun tunash 87,0 %ni tashkil etgan, 4 - 7 kun tunash esa 9,3 %ni, 8 - 28 kun tunash 3,0 %ni, 29 - 91 kun tunash 0,4 %ni, 92 - 182 kun tunash 0,2 %ni, 183 - 365 kun tunash esa 0,1 %ni tashkil etgan.

### 2019- yilda safar maqsadlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

	Jami	Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	Davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar
Joylashtirilgan shaxslar, jami	22 276	9 603	12 673
shu jumladan fuqarolar:			
O'zbekistondan	16 665	3 992	12 673
MDH mamlakatlaridan	186	186	-
Xorijiy davlatlardan	5 425	5 425	-

2019- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida 22 276 nafar kishi joylashtirilgan, ulardan davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalarni olish maqsadi bo'yicha – 56,9 %ni, ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadi bo'yicha – 43,1 %ni tashkil etgan.

### 2019- yilda turish muddati bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, 1 – 3 kun tunash 29,5 %ni tashkil etgan, 4 - 7 kun tunash 17,0 %ni, 8 - 28 kun tunash 49,0 %ni, 29 - 91 kun tunash esa 4,5 %ni tashkil etgan.

### 2019- yilda safar maqsadlari bo'yicha individual joylashtirish muassasalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

	Jami	Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish	Do'stlar va qarindoshlardan xabar olish	Ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar
Joylashtirilgan shaxslar, jami	4 528	3 718	10	800
shu jumladan fuqarolar:				
O'zbekistondan	768	122	10	636
MDH mamlakatlaridan	76	52		24
Xorijiy davlatlardan	3 684	3 544	-	140

Individual joylashtirish vositalarida 4 528 nafar kishi joylashtirilgan, ulardan ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadi bo'yicha – 82,1 %, ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bo'yicha – 17,7 %, do'stlar va qarindoshlardan xabar olish – 0,2 %.

### 2019- yilda turish muddati bo'yicha individual joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

	Jami	1-3 kun tunash	4 – 7 kun tunash	8 – 28 kun tunash	92 – 182 kun tunash
Joylashtirilgan shaxslar, jami	4 528	4 368	63	74	23
shu jumladan fuqarolar:					
O'zbekistondan	768	704	16	25	23
MDH mamlakatlaridan	76	60	2	14	-
Xorijiy davlatlardan	3 684	3604	45	35	-

Jami joylashtirilgan shaxslar sonidan joylashtirilgan shaxslarning 96,5 % kishi 1 - 3 kun tunagan, 1,4 % kishi 4 - 7 kun tunagan, 1,6 % kishi 8 - 28 kun tunagan, 0,5 % kishi 92 - 182 kun tunagan.

## 2019- yilda xodimlar soni, kishi

(o'rindoshlarsiz)

Jami	Ulardan:				
	turistik firma va tashkilotlarda	mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida	ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida	individual joylashtirish vositalarida	boshqa turdagi joylashtirish vositalarida
928	8	387	507	7	19

2019- yilda xodimlar soni (o'rindoshlarsiz) turistik firma va tashkilotlarda 8 kishini, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida – 387 kishini, ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida – 507 kishini, individual joylashtirish vositalarida – 7 kishini, boshqa turdagi joylashtirish vositalarida 19 kishini tashkil qilgan.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**

**Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**

**Tel.: 79-223-54-98**